



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024- yil yanvar-aprel oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi:
(71) 203-88-20(21)*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Toshkent shahrida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **8 097,6** mln AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **380,6** mln AQSH dollariga yoki **4,9 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-aprel 2024 y., mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **8 097,6** **+4,9 %**

(2023- y.: **7 717,0**)



Saldo

2024- y.: **-5 067,7** (2023- y.: **-4 658,2**)



Eksport

2024- y.: **1 514,9** **-0,9 %**

(2023- y.: **1 529,4**)

TSA'dagi ulushi, % da



Import

2024- y.: **6 582,6** **+6,4 %**

(2023- y.: **6 187,6**)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 1 514,9 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 0,9 % ga kamaydi) va import hajmi 6 582,6 mln. AQSH dollariga (6,4 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida -5 067,7 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-aprel oylari, mln. AQSH dollari)

<p>Rossiya</p> <p>TSA – 2 222,2</p> <p>Eksport: 297,8 Import: 1 924,4</p> <p> 27,4 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 1 717,1</p> <p>Eksport: 248,1 Import: 1 469,0</p> <p> 21,2 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 575,3</p> <p>Eksport: 122,5 Import: 452,8</p> <p> 7,1 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 391,1</p> <p>Eksport: 112,1 Import: 279,0</p> <p> 4,8 %</p>	<p>Turkmaniston</p> <p>TSA – 211,0</p> <p>Eksport: 12,0 Import: 199,0</p> <p> 2,6 %</p>
<p>Germaniya</p> <p>TSA – 184,6</p> <p>Eksport: 14,1 Import: 170,5</p> <p> 2,3 %</p>	<p>AQSH</p> <p>TSA – 170,9</p> <p>Eksport: 34,5 Import: 136,4</p> <p> 2,1 %</p>	<p>Hindiston</p> <p>TSA – 163,4</p> <p>Eksport: 6,7 Import: 156,7</p> <p> 2,0 %</p>	<p>BAA</p> <p>TSA – 135,1</p> <p>Eksport: 30,6 Import: 104,5</p> <p> 1,7 %</p>	<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 129,5</p> <p>Eksport: 127,6 Import: 1,9</p> <p> 1,6 %</p>

Toshkent shahri jahonning 166 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (27,4 %), XXRda (21,2 %), Qozog‘istonda (7,1 %), Turkiyada (4,8 %) va Turkmanistonda (2,6 %) qayd etilgan.



TOSHKENT SHAHRINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	1 312,0	1 506,4	2 222,2

Eksport

221,8

313,5

297,8

Import

1 090,2

1 192,9

1 924,4



XXR	1 437,6	1 602,0	1 717,1
------------	----------------	----------------	----------------

Eksport

297,2

240,2

248,1

Import

1 140,4

1 361,8

1 469,0



Qozog'iston	529,7	610,9	575,3
--------------------	--------------	--------------	--------------

Eksport

108,1

149,4

122,5

Import

421,6

461,5

452,8



Turkiya	398,3	469,3	391,1
----------------	--------------	--------------	--------------

Eksport

112,7

122,5

112,1

Import

285,6

346,8

279,0



Turkmaniston	178,2	252,2	211,0
---------------------	--------------	--------------	--------------

Eksport

27,1

35,9

12,0

Import

151,1

216,3

199,0



Germaniya	347,5	632,1	184,6
------------------	--------------	--------------	--------------

Eksport

15,7

12,2

14,1

Import

331,8

619,9

170,5



AQSH	157,4	104,3	170,9
-------------	--------------	--------------	--------------

Eksport

14,8

17,6

34,5

Import

142,6

86,7

136,4



Hindiston	131,8	105,8	163,4
------------------	--------------	--------------	--------------

Eksport

4,3

6,3

6,7

Import

127,5

99,5

156,7



BAA	120,1	136,3	135,1
------------	--------------	--------------	--------------

Eksport

27,4

48,5

30,6

Import

92,7

87,8

104,5



Afg'oniston	125,0	129,9	129,5
--------------------	--------------	--------------	--------------

Eksport

123,9

129,4











127,6

Import

1,1


0,5

1,9

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
 Koreya Respublikasi	158,8	117,0	118,5
<i>Eksport</i>	4,9	5,7	10,0
<i>Import</i>	153,9	111,3	108,5
 Tojikiston	83,7	88,1	115,4
<i>Eksport</i>	67,4	78,8	78,9
<i>Import</i>	16,3	9,3	36,5
 Chexiya	27,7	58,7	110,3
<i>Eksport</i>	4,8	11,0	18,7
<i>Import</i>	22,9	47,7	91,6
 Fransiya	59,5	119,3	108,4
<i>Eksport</i>	2,7	0,4	5,3
<i>Import</i>	56,8	118,9	103,1
 Yaponiya	39,9	19,7	105,1
<i>Eksport</i>	6,4	2,7	5,2
<i>Import</i>	33,5	17,0	99,9
 Litva	74,0	135,0	104,0
<i>Eksport</i>	8,7	18,7	10,8
<i>Import</i>	65,3	116,3	93,2
 Saudiya Arabistoni	38,5	40,3	97,8
<i>Eksport</i>	0,5	0,4	5,6
<i>Import</i>	38,0	39,9	92,2
 Belarus	83,2	98,5	97,7
<i>Eksport</i>	11,9	14,6	18,3
<i>Import</i>	71,3	83,9	79,4
 Qirg'iz Respublikasi	90,4	75,4	92,7
<i>Eksport</i>	80,8	54,7	75,1
<i>Import</i>	9,6	20,7	17,6
 Buyuk Britaniya	43,7	93,4	82,3
<i>Eksport</i>	21,2	34,2	35,3
<i>Import</i>	22,5	59,2	47,0




TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar –aprel mln AQSH doll.)*



Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 16,1 % ulush bilan 1 304,6 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bektemir tumani 2,6 % ulush bilan 213,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 42,0 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 6,5 % ga ko'paydi.



Toshkent shahrining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAdagi ulushi 2024- yilning yanvar-aprel oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 6,5 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 58,0 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-aprel oylari holatiga ko'ra, 3 387,7 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 634,6 mln AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 2 753,1 mln AQSH dollari qiymatida qayd etildi.




TOSHKENT SHAHRINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (27,4 %), Qozog'iston (7,1 %) hamda Turkmaniston (2,6 %) davlatlari bilan qayd etildi.

TOSHKENT SHAHRINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



Toshkent shahrining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 2 991,6 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 516,3 mln AQSH dollari, import hajmi esa 2 475,3 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Qirg'iz Respublikasi va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



TOSHKENT SHAHRINING EKSPORTI

(2024- yil yanvar-aprel)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, Toshkent shahrining eksportyorlar soni 1 378 taga yetdi va ular tomonidan 1 514,9 mln AQSH dollari (*nomonetar oltingan tashqari*) qiymatidagi (*2023- yilning mos davriga nisbatan 0,9 % ga kamaydi*) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-aprel ulushi % da)



Toshkent shahrida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (*keyingi o'rinlarda TIF TN*) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (*keyingi o'rinlarda – XSST*) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



TOSHKENT SHAHRINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-aprel, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	1 529,4	1 514,9	112,9	99,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	85,6	58,4	132,7	68,2	5,6	3,9
Ichimliklar va tamaki	26,6	23,0	145,6	86,4	1,7	1,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	17,4	17,0	85,0	97,5	1,1	1,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	56,2	96,8	53,5	172,2	3,7	6,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,6	37,9	11,4 m.	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	116,1	95,1	93,6	81,9	7,6	6,3
Sanoat tovarlari	294,7	290,4	110,9	98,6	19,3	19,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	171,1	113,3	2,5 m.	66,2	11,2	7,5
Turli xil tayyor buyumlar	57,1	59,5	117,4	104,4	3,7	3,9
Boshqa tovarlar	8,4	16,8	0,0	2,0 m.	0,6	1,1
<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	696,1	743,9	108,9	106,9	45,5	49,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 50,9 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (19,2 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (7,5 %) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (6,4 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.


O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-aprel oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,2 % ga kamaygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari, ulushi)

■ MDH davlatlari ■ Boshqa davlatlar



2024- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Afg'oniston, Qozog'iston, Turkiya, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 70,2 % ni tashkil etdi.

TOSHKENT SHAHRINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-aprel, % da)






TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-aprel)*

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	313,5	297,8	141,3	95,0	1	1
XXR	240,2	248,1	80,8	103,3	2	2
Afg'oniston	129,4	127,6	104,4	98,6	4	3
Qozog'iston	149,4	122,5	138,2	82,0	3	4
Turkiya	122,5	112,1	108,7	91,5	5	5
Tojikiston	78,8	78,9	116,9	100,1	6	6
Qirg'iz Respublikasi	54,7	75,1	67,7	137,3	7	7
Buyuk Britaniya	34,2	35,3	161,3	103,2	12	8
AQSH	17,6	34,5	118,9	196,0	14	9
BAA	48,5	30,6	177,0	63,1	8	10
Ozarbajjon	15,9	19,3	92,4	121,4	16	11
Kanada	11,0	19,0	211,5	172,7	20	12
Chexiya	11,0	18,7	229,2	170,0	19	13
Belarus	14,6	18,3	122,7	125,3	17	14
Gruziya	10,4	15,7	150,7	151,0	21	15
Latviya	17,2	14,6	200,0	84,9	15	16
Germaniya	12,2	14,1	77,7	115,6	18	17
Polsha	6,4	13,0	78,0	203,1	25	18
Shvetsariya	7,4	12,3	83,1	166,2	24	19
Turkmaniston	35,9	12,0	132,5	33,4	11	20



TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-aprel, mln AQSH doll.)



Toshkent shahar eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 21,9 % bilan 332,0 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bektemir tumani 1,2 % bilan 18,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.




TOSHKENT SHAHRINING IMPORTI



2024- yilning yanvar-aprel oylarida import hajmi 6 582,6 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 6,4 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (28,2 %), sanoat tovarlari (17,2 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (13,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 395,0 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 6 582,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 467,3 mln AQSH dollariga yetdi.




TOSHKENT SHAHRINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-aprel, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	6 187,6	6 582,6	123,8	106,4	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	583,5	544,2	99,0	93,3	9,4	8,3
Ichimliklar va tamaki	44,1	71,4	136,1	161,9	0,7	1,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	78,7	66,8	96,3	84,9	1,3	1,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	468,4	949,8	179,2	202,8	7,6	14,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	86,4	53,1	157,5	61,5	1,4	0,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	897,1	890,9	102,0	99,3	14,5	13,5
Sanoat tovarlari	956,6	1130,6	104,4	118,2	15,4	17,2
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	2232,5	1860,3	137,2	83,3	36,1	28,3
Turli xil tayyor buyumlar	271,7	307,1	96,8	113,0	4,4	4,7
Boshqa tovarlar	259,2	241,2	0,0	93,1	4,2	3,6
Xizmatlar	309,3	467,3	112,7	151,1	5,0	7,1

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-aprel natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 41,8 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,9 % ga ko'paydi.


MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrida 166 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Turkmaniston, Germaniya va Hindiston) jami importning 70,6 % ni tashkil etdi.



TOSHKENT SHAHAR IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-aprel, % da)






TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-aprel)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	1 192,9	1 924,4	109,4	161,3	2	1
XXR	1 361,8	1 469,0	119,4	107,9	1	2
Qozog'iston	461,5	452,8	109,5	98,1	4	3
Turkiya	346,8	279,0	121,4	80,4	5	4
Turkmaniston	216,3	199,0	143,2	92,0	6	5
Germaniya	619,9	170,5	186,8	27,5	3	6
Hindiston	99,5	156,7	78,0	157,5	11	7
AQSH	86,7	136,4	60,8	157,3	13	8
Koreya Respublikasi	111,3	108,5	72,3	97,5	10	9
BAA	87,8	104,5	94,7	119,0	12	10
Fransiya	118,9	103,1	209,3	86,7	8	11
Yaponiya	17,0	99,9	50,7	587,6	41	12
Litva	116,3	93,2	178,1	80,1	9	13
Saudiya Arabistoni	39,9	92,2	105,0	231,1	24	14
Chexiya	47,7	91,6	208,3	192,0	22	15
Belarus	83,9	79,4	117,7	94,6	14	16
Italiya	70,3	68,6	121,2	97,6	16	17
Gruziya	28,2	58,7	95,6	208,2	28	18
Polsha	58,9	57,3	220,6	97,3	21	19
Tailand	59,5	49,6	862,3	83,4	19	20



TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024- yil yanvar-aprel, mln. AQSH doll.)



Toshkent shahrining importi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 14,8 % bilan 972,6 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangihayot tumani 2,4 % bilan 159,0 mln AQSH dollarini tashkil etdi.